

MUSTAQILLIK YILLARIDA NAVOIY VILOYATI XOTIN-QIZLARINING TADBIRKORLIK FAOLIYATINING TAKOMILLASHTIRILISHI

Yo'Idosheva M.U.

NavDPI Tarix fakulteti 2-kurs

talabasi

Ro'ziyeva D.M.

Ilmiy rahbar: katta o'qit.

Bugungi kunda Vatanimiz taraqqiyoti, oila va jamiyat hayotida xotin-qizlar muhim o'rinni va mavqeiga ega bo'lib bormoqdalar. Xususan O'zbekiston aholisining qariyb 50% ini tashkil etadigan ayollarimiz mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayotidagi barcha sohalarda, jumladan ishlab chiqarish, tadbirkorlik, fermerlik, sog'lqnini saqlash, ta'llim, ma'rifat, madaniyat va boshqa bir qator yo'nalishlarda samarali mehnat qilmoqdalar. Birgina Navoiy viloyati miqyosida tahlil qiladigan bo'lsak, bugungi kunda 500 ming nafardan ortiq opa-singillarimiz o'zlarining kamtarona mehnati va izlanishlari bilan iqtisodiy islohotlar, ma'naviy yangilanish va jamiyat demokratlashuvi jarayonlarida ishtiroy etmoqdalar.

Jumladan, viloyat ta'llim sohasida ishlayotganlarning 68%, sog'lqnini saqlashda 66%, qishloq xo'jaligi va sanoatda qariyb 40%ini ayollar tashkil etsa, 60 ming nafarga yaqin onaxon va momolarimiz keksalik gashtini surmoqdalar. Ushbu sohalardagi ayollar ulushini oshirish, xotin-qizlar uchun munosib ravishda shart-sharoitlarni yaratib berishga alohida e'tibor qaratilmoqdalar [1].

Chunki Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Xotin-qizlar va oila masalasi-bu nafaqat bugungi kunimiz, balki ertangi kelajagimizni ham belgilab beradigan hal qiluvchi omildir. Agar biz mehr-oqibat va sadoqat timsoli, xonardonlarimiz farishtasi bolgan ayollarga bitta yaxshilik qilsak, hech shubhasiz, bu önta yaxshilik bolib qaytadi" [2].

Shu bois mamlakatimizda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish, ayniqsa, ijtimoiy hamda turmush sharoiti og'ir, ishsiz xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularni kasb-hunarga o'rgatish, doimiy daromad manbalarini shakllantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasidagi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 20-noyabrdagi «Xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash, ularni o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga muvofiq 2020-yil davomida Navoiy viloyatida xotin-qizlar tadbirkorlik markazi tomonidan jami 273 ta yangi ish o'rnlari yaratilgan. Shuningdek, Zarafshon shahrida 34 nafar, Xatirchi tumanida 49 nafar, Uchquduq tumanida 2 nafar, Nurota tumanida 61 nafar, Navoiy





shahridan 16 nafar, Navbahor tumanida 39 nafar, Qiziltepa tumanidan 23 nafar, Konimex tumanidan 35 nafar, Karmana tumanidan 12 nafar xotin-qizlar bandligini ta'minlandi. 2020-yilda viloyat Xotin-qizlar tadbirkorlik markazi tomonidan kambağallikni oldini olish buyicha ishsiz, o'gir vaziyat tushib qolgan, bola parvarishi bilan doimiy shuğullangan xotin-qizlar öquv markazlariga jalb etilib, öquv dastur va reja asosida 2108 nafar ayollar öqitilgan. Jumladan: Xatirchi tumanidan 380 nafar, Nurota tumanidan 350 nafar, Navoiy shahridan 140 nafar, Karmana tumanidan 170 nafar xotin-qizlar öquv kurslariga jalb etildi. O'quv dasturi va reja asosida 2108 nafar ayollar o'qitildi, 3039 nafar xotin-qizlar viloyat xotin-qizlar tadbirkorligi markazi tomonidan 22 xil yo'nalishdagi kasb-hunarga jalb etildi [3]. Bundan tashqari kredit olish istagida bo'lgan «Ayollar daftari»da turuvchi 1537 nafar ayollarca Navoiy viloyati xotin-qizlar tadbirkorlik markazi tomonidan o'qitilib sertifikatlar berilgan. 1522 nafariga «Xalq banki» ATB tomonidan 20 mlrd. 450 mln. so'm miqdordagi kredit mablag'lari ajratildi. Shu bilan birga 512 nafar kambag'allik ro'yxatida turgan xotin-qizlar ish bilan ta'minlanishiga ko'maklashildi. Viloyatda tashkil etilgan tadbirkorlik markazi tomonidan o'quv kursini muvaffaqiyatli tugatgan 3276 nafar xotin-qizlarga markazning maxsus sertifikatlari topshirildi [4].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Jamiyat ayollar va yoshlarning rolini oshirish hamda bandligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 8-oktabrda o'tkazilgan videoselektr yig'ilishida ham xotin qizlar uchun keng imkoniyatlar belgilandi. Bu vazifalarni tizimli va samarali amalga oshirish maqsadida quyidagilar belgilandi: -xotin-qizlar masalalarini hal etishga Kasaba uyushmalarini ham biriktirilib, "Ayollar maslahat kengashi" jamoatchilik tuzilmalarining bevosita hududiy hokimliklar bilan tizimli hamkorligi yўlga qo'yildi. Natijada 2020 yil 8-oktabrdagi qaror asosida Navoiy viloyatida 14463 nafar xotin-qizlarning bandligi ta'minlandi. Jumladan 2489 nafari doimiy ish bilan ta'minlangan bo'lsa, 1034 nafari vaqtinchalik jamoat ishlariga jalb etildi. 22 nafari tadbirkorlikni jalb etish uchun subsidiya berish orqali, 196 nafari shaxsiy tomorqaralarini rivojlantirish orqali, 999 nafari jamoat kooperasiyalariga jalb etish orqali o'zlarining daromad manbaiga ega bўlishdi. 12 nafariga kasbga o'qitish xarajatlarini qoplash uchun maqsadli subsidiya mablağlari ajratildi, 362 nafari uchun ishsizlik nafaqasi tayinlandi va 3105 nafari mustaqil ravishda ishga joylashish orqali bandligini ta'minlandi, 1510 nafar xotin-qizlar bandlik bo'limlarining mono-markazlarida kasb-hunarga öqitildi va ushbu maqsadlarga 318 mln. 785 ming 700 so'm mablağ sarflandi . [5]

Xususan, Navoiy shahrida 92 nafar, Qiziltepa tumanida 90 mafar, Xatirchi tumanida 72 nafar, Navbahor tumanida 40 nafar, Nurota tumanida 95 nafar xotin-



qizlar tikuvchilik, qandolatchilk, gilamchilik, zargarlik, milliy hunarmandchilik, tadbirkorlik va biznes asoslari yo'nalishlari bo'yicha o'qitildi va jami 8 ta yo'nalish bo'yicha 549 nafar xotin-qizlar kasb-hunarga o'qitildi [6].

"Besh muhim tashabbus" doirasida chekka-chekka hududlarda tikuvchilik sexlari ochildi. Tadbirkor va ishbilarmon ayollarning mehnatini rag'batlantirish, ayollar tadbirkorligini yanada rivojlantirish maqsadida viloyat miyisosida "Eng yaxshi mahalla raisi", "Eng yaxshi yoshlar yetakchisi", "Ishbilarmon ayol", "Eng namunali kasanachi ayol", "Eng faol tadbirkor ayol", "Eng yaxshi xotin-qizlar faoli" kabi tadbirlarni o'tkazish viloyat miyisosida an'anaga aylandi. Ushbu o'tkazilayotgan tanlovlarda Navoiy viloyatxitotin-qizlarining ishtiroki ham alohida o'ringa ega. Jumladan, "Eng yaxshi xotin-qizlar faoli" yo'nalishida Karmana tumani "Talqoq" mahallasi xotin-qizlar faoli G.Tog'ayeva g'olib bo'ldi. Respublika miyisosida o'tkazilgan "Suv xo'jaligini sohasining eng namunali fidoyi ayol xodimasi" tanlovida ham Quyi Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi Konimex tuman irrigatsiya bo'limining 2-toifali muhandis gidrotexnigi Peruzat Maxanbetova 1-o'rinni egallab, tanlov g'olibi boldi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2021-yil 20-avgustni "Tadbirkorlar kuni" deb belgilanishi munosabati bilan mamlakatimizda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlanishiga munosib hissasi uchun "Tadbirkor ayol" klubi faol a'zosi, Navoiy viloyati Xotin-qizlar tadbirkorlik markazi rahbari Norov Gulsanam Maxsutovna O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati raisi Tanzilla Norbayevanining tashakkurnomasi bilan taqdirlandi. "Ziyokor ayollar" markazi rahbari Gulhayo Ravshanova "Nurota tumani aholisi ayniqsa yoshlarni adolat targ'ibotchilari guruhiga aylantirish" nomli 60 mln. so'mlik grant loyihasini qo'lga kiritdi [7].

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2022-yil 7-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga binoan Navoiy shahridagi "Humo Zilola" professional bosh kompaniyasi rahbari Jurayeva Ozoda Abduraximovnaning "Do'stlik" ordeni, Nurota tumani "Nurota qorako'l naslchilik" ma'suliyati cheklangan jamiyati bosh cho'poni Ziyatova Shahlo Bekqulovna "Shuhrat" medali bilan taqdirlanganligi yana bir bor Navoiylik ayollarning qalbida faxr tuyg'usini uyg'otdi [8].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mamlakatimizda qabul qiliniyotgan qonun va qarorlar, har bir islohot o'z samarasini bermoqda. Shu o'rinda "Har bir oila-tadbirkor" dasturi negizida xotin-qizlar o'tasida tadbirkorlikni rivojlantirish, "Ayollar daftari" da ishsizlik o'rnini band qilgan xotin-qizlarni faol hayotga qaytarish va ish bilan ta'minlash, kasb-hunarga o'rgatish, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish borasida



uzluksiz ravishda qonun-qoidalar joriy etilmoqda. Xotin-qizlarimizning tadbirkorlik va biznes sohasidagi faolligi mamlakatimiz iqtisodiy hayotining barqaror taraqqiy etishining asosiy omillaridan biriga aylanib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. [https://xs.uz/uz/uz/post/ayollar - oila va jamiyat- farovonligining-muhim- sharti](https://xs.uz/uz/uz/post/ayollar-oila-va-jamiyat-farovonligining-muhim-sharti)
2. Sh.Mirziyoyev Xalqaro xotin-qizlar kuniga bağishlangan tantanali marosimdagи nutqi. 2022-yil 8-mart
3. Navoiy viloyati Xotin -qizlar tadbirkorlik markazi joriy arhivi, 2020-yil ma'lumoti
4. O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvatlash Vazirligi huzuridagi Navoiy viloyati xotin-qizlar tadbirkorlik markazi tomonidan 2021-yil yanvar-dekabr oylari davomida amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi hisobot
5. Muqaddas burch ijtimoiy huquqiy gazeta 4-5 (131)-son 2022 yil 4 mart www.muqaddasburch.uz
6. Navoiy viloyati xotin-qizlar tadbirkorlik markazi tomonidan 2020-yil sentabr-oktabr oylari davomida amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi hisobot
7. Navoiy viloyati oila va xotin-qizlar boshqarmasi matbuot xizmati
8. <https://yoshlarkelajagimiz.uz/shavkat-mirziyoyev-8-mart-xalqaro-xotin-qizlar-kuni-munosabati-bilan-bir-guruh-ayollarni-mukofotladi>

